

PRESUPPOZITSIYA ATAMASIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR TAHLILI

Sarbarova Dilnoza Nosirjon qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi

Email: dilnozasarbarova1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Presuppozitsiya tushunchasi, uning kelib chiqish tarixi hamda tilshunoslikdagi o‘rnı va ahamiyati mazkur maqolada yoritib berilgan. Shuningdek, lingvistik presuppozitsiya bilan bog‘liq nazariy qarashlar ham bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: presuppozitsiya, pragmatika, tag ma’no, yashirin axborot, tejamlilik, propozitsiya.

Keyingi davrlarda lingvistik presuppozitsiya masalasi ko‘plab tilshunos olimlarning diqqat e’tiborini tortib kelmoqda. Presuppozitsiya atamasi nemis mantiqshunosi G.Frege g‘oyalari bilan bog‘liq hisoblanadi. Fregening fikricha, asosiy hukm ko‘p hollarda boshqa yashirin hukm bilan birgalikda keladi. Uning ta’limotiga ko‘ra mavjudlikni bildiruvchi ikkinchi darajali yashirin hukmgina presuppozitsiya hisoblanadi. Ushbu atamaning qo‘llanilishi P.Strouson nomi bilan ham bog‘liqdir. U ham huddi Frege singari presuppozitsiyani gaplar o‘rtasidagi semantik munosabatdan kelib chiqishini ta’kidlaydi.

Presuppozitsiya tushunchasi tilning pragmatik aspektini namoyon etadigan hodisa bo‘lib, gapda, nutq shakllanishida shu bilan birga shaxslarning nut jarayoni va ob’ekti to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlari bilan uzviy bog‘lanadi. Shuningdek, gapning semantik jihatdan tuzilishi bilan bog‘liq hodisa sifatida alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Lingvistik presuppozitsiya ko‘p hollarda tilshunosligimizda doimiy qo‘llaniluvchi tejash tamoyili asosida hosil bo‘ladi. N.Mahkamov tejamlilik xususida shunday deydi: tejamlilik o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda leksik yoki grammatik ma’no bajarayotgan birlik vazifasi shu birliklar majmuasidagi boshqa birlikka yuklatiladi. Natijada vazifa bajarmayotgan birlik majmua (so‘z, birikma, gap) tarkibidan chiqariladi va nisbatan shakliy ixchamlik vujudga keladi [2]. A.Nurmonov ilmiy ishlarining birida presuppozitsiya va tag ma’no haqida so‘z yuritadi va shunday deydi: Bizning fikrimizcha presuppozitsiyani yashirin ma’no bilan bog‘lasak, presuppozitsiya va tag ma’noring o‘rtasidagi farqni yo‘qqa chiqarib qo‘yamiz. Bizning

fikrimizcha presuppozitsiya termini ostida jumladan anglashilgan yashirin ma’no emas balki yashirin hukm, aniqrog‘i axborot anglashiladi[3].

Lingvistik presuppozitsiyaning o‘ziga xos bo‘lgan umumiyligi belgilari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

1. Lingvistik presuppozitsiya til birligining kontekst, nutq vaziyati, so‘zlovchi va tinglovchilarning voqelik haqidagi umumiyligi bilimlari hamda til ko‘nikmalari bilan bog‘liq jihatlarini aks ettirishi.

2. Lingvistik presuppozitsiya sintaktik strukturada yashirin ifodasiga ega bo‘lgan vaziyat ifodasi hisoblanishi.

3. Lingvistik presuppozitsiya gap tashqi strukturasida bevosita aks etmasligi, lekin gapning semantik strukturasi orqali yashirin ifodasiga ega bo‘lishi.

4. Lingvistik presuppozitsiya sintaktik strukturada muayyan tashqi signallari – ishora vositalariga ega bo‘lishi.

5. Lingvistik presuppozitsiyada nutq ishtirokchilariga oldindan ma’lum voqelik ifodasi o‘z aksini topishi.

6. Lingvistik presuppozitsiya asosiy hollarda tilda amal qiluvchi tejash tamoyili asosida yuzaga chiqishi. Shuningdek, tejash tamoyiliga ko‘ra sintaktik qurilma tarkibidan tushirib qoldirilgan gap uzzining vazifasini shu qurilmadagi boshqa birlik zimmasiga yuklatish asosida shakliy ixchamlikka erishish lingvistik presuppozitsiya yordamida amalga oshirilishi.

7. Lingvistik presuppozitsiya propozitsiya bilan bir qatorda gapning semantic tuzilishida ishtirok etishi va har qanday gapni mazmunan murakkablashtirishi. Buning natijasida esa gapda shakl va mazmun birligining buzilishi.

8. Lingvistik presuppozitsiya gapda bevosita ifodalangan propozitsiyaga semantik jihatdan aloqador bo‘lgan axborotni aks ettirishi va asosiy hollarda ayni propozitsiyaga semantik jihatdan zidlanishi. Bizga ma’lumki, lingvistik presuppozitsiyani tadqiq etishda tilshunoslarning asosiy e’tibori unga ishora qiluvchi til vositalariga qaratiladi. Chunki presuppozitsiyaga ishora qiluvchi til birliklarining lisoniy tadqiqi gapning mazmuniy tuzilishidagi o‘ziga xos bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlashda alohida o‘rin tutadi. Barcha tillarda lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi tashqi signallar mavjud bo‘ladi. U.Rahimov izlanishlariga ko‘ra lingvistik presuppozitsiyaning o‘zbek tilidagi tashqi signallari tasniflanishi quyidagicha:

- a) leksik vositalar;
- b) morfologik vositalar;
- c) sintaktik vositalar;

Uning fikricha, presuppozitsiyaning lisoniy ko‘rsatkichlari – fonema, morfema, leksema, so‘z shakl, so‘z birikmasi, gaplar ishorasi tarzida belgilanadi [4].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, presuppozitsiya har qanday muloqotning muhim jihatni sanaladi. Presuppozitsiya atamasi otida yashirin ma’no emas, balki yashirin axborot anglashiladi. Tilshunos olim M. Hakimov takidlaganidek, Presuppozitsiya tushunchasi har qanday nutq ishtirokchisi uchun ma’lum bo‘lishi mumkin, juda bo‘lmaganda matndagi propozitsiyani mantiqiy tahlil qilish asosida presuppozitsiyani aniqlab olish mumkin bo‘ladi[1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ҳакимов М. Тагмаъно ва тагбилим хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 2001. - №1.
2. Маҳкамов Н. Лисоний ортиқчалик ва тежамлилик натижасида вужудга келган десемантизация // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 2002. - №2.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар I жилд. –Т. Акадэмнашр. Б. 404
4. Раҳимов У. Тагмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тил ва адабиёти. - Тошкент. 2005. - №5.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, -2008.